

Me'mor//2023 Arxitektura ko'rik-tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risida

NIZOM

Umumiy qoidalar

Me'mor//2023 - III-arxitektura ko'rik-tanlovi (keyingi o'rinlarda Tanlov) "KNAUF GIPS BUXORO" XK MChJ (keyingi o'rinlarda - tashkilotchi) tomonidan tashkil etilmoqda. Tanlovning ishchi tillari – o'zbek va rus tillari. Tanlovga ishlarni taqdim etish orqali muallif – Tanlov qatnashchisi tanlovni o'tkazish qoidalari bilan tanishganligi va unga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Tanlovning har bir sovrindori bilan Kelishuv tuziladi, tanlov qatnashchisi g'alaba qozonganda va rag'batlantiruvchi mukofotni qo'lga kiritganda, uning shartlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi.

1. Tanlov mavzusi

“Arxitektura – bu inson o'zini makonda qanday joylashishidir”

Zaha Hadid

2. Tanlov maqsadi

- O'zbekiston arxitektorlari, byuro va ijodiy jamoalarning eng yaxshi kreativ ishlarini aniqlash, ularning loyihalash va qurilish sohalarida yuksak natijalarga erishishlarini rag'batlantirish;
- O'zbekistonlik iste'dodli arxitektorlar, dizaynerlar, loyihalashtiruvchilar, urbanistlarni keng ommaga tanitish va ularning ishlariga jamoatchilik diqqatini jalb etish;
- me'moriy, shaharsozlik, dizaynerlik va urbanistik yechimlarga omma e'tiborini kuchaytirish, shuningdek, O'zbekistonda yangi obyektlarni qurish, mavjudlarini qayta tiklash va yangilashda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini oshirish;
- ishtirokchilar orasida tajriba, hamda arxitektura makonida odamlarning turmush sifatini yaxshilashga oid eng yaxshi yechimlar va yondashuvlar almashuviga hissa qo'shish;
- innovatsiyalarni targ'ib qilish, KNAUF xalqaro kompaniyasining qurilish uchun mo'ljallangan ekologik toza, energiyani tejovchi materiallar va atrof-muhitga ta'sirini kamaytiruvchi texnologiyalardan foydalanish jarayonini namoyish etish.

3. Tanlov ishlarini saralash mezonlari quyidagilardan iborat:

- muammolarni hal qilishda ijodiy va innovatsion yondashuv, yangi kompozitsion texnikalar, materiallar, texnologiyalardan foydalanish;
- tanlov ishining ko'rsatilgan funksiyaga muvofiqligi;
- ishning estetik sifatlarining zamonaviy davrga, shuningdek, tabiiy va/yoki shaharsozlik kontekstiga muvofiqligi; obyektida yoki uning yonida yashovchilar, talabalar va ishchilarning ehtiyojlari va talablarini, vizual va psixologik qulayligini hisobga olish;
- loyihada resurs samaradorligi va barqaror rivojlanish tamoyillaridan foydalanish;
- loyihaning asosiy funksiyadan tashqari ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyasi mavjudligi, shuningdek, uning to'liqsiz muhit talablariga muvofiqligi;
- amalga oshirilgan loyihalarga (ya'ni qurilishlarga) ustuvor ahamiyat beriladi.

4. Tanlov Tashkilotchilari va Koordinatorlari

Tanlov tashkilotchisi "KNAUF GIPS BUXARA" XK MChJ. Kompaniyaning vakillar guruhi Tanlovni boshlab, rejalashtirib va o'tkazishga mas'ul bo'ladilar. Tanlov tashkilotchilari tanlovni o'tkazish tartibini Nizomga muvofiq belgilaydi, sovrin jamg'armasini tayinlaydi, tanlov reklamasini va hakamlar hay'atining ish sharoitlarini ta'minlaydi, ijodiy jarayonni tashkil etish vakolatlarini Me'mor//2023 arxitektura ko'rik-tanlovi koordinatoriga topshiradi. Tanlov tashkilotchilari qurilish sohasida ishlab chiquvchilar, reklama agentlari, maslahatchilar, savdo vakillari, menejrlarni taklif qilish huquqiga ega.

Tanlov tashkilotchilari litsenziyaga ega me'mor bilan shartnoma tuzadi, uning vazifasi hakamlar hay'ati ishini muvofiqlashtirishdan iborat bo'lib, tanlov nizomi, qoidalari va reglamentini ishlab chiqadi. Koordinator tanlovning shaffofligi va halolligini, shuningdek, ishtirokchilar, hakamlar hay'ati va tashkilotchilar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi. Tanlov doirasida yuzaga keladigan nizolarni hal qiladi. Tanlov to'g'risida hisobot tayyorlaydi va natijalarni tahlil qiladi.

5. Tanlovning hakamlar hay'ati

Hakamlar hay'ati bu – tanlov tashkilotchilari yoki koordinatori tomonidan tanlov ishtirokchilarini baholash va turkumlar bo'yicha nominatsiyalar g'oliblarini tanlash uchun taklif qilingan arxitektura va qurilish sohasi mutaxassislar guruhi. Hakamlar hay'atining vakolatiga ishtirokchilarning ishlarini har bir toifadagi hakamlar hay'ati tomonidan alohida belgilangan mezonlarga muvofiq baholash, g'oliblarni mukofotlash va sovrinlarni topshirish to'g'risida qaror qabul qilish, rasmiy tadbirda ishtirokchilarga izohlar va fikr-mulohazalarni taqdim etish, ishlarni baholash jarayonida maxfiylik munosib darajasini ta'minlash kiradi. Zaruratga qarab, hakamlar hay'ati o'z qarorini Me'mor//2023 arxitektura ko'rik-tanlovining koordinatori va tashkilotchilari bilan oldindan kelishib, noodatiy ijodiy tanlov ishlari uchun rag'batlantiruvchi mukofotlar belgilash huquqiga ega. Hakamlar hay'ati a'zolari soni tanlov tashkilotchilari tomonidan belgilanadi.

6. Tanlov ishtirokchilari

Me'mor//2023 arxitektura ko'rik-tanlovida arxitektorlar, dizaynerlar, shaharsozlar, urbanistlar, arxitektura byurolari, studiyalar, ustaxonalar, qurilish kompaniyalarining loyiha bo'limlari, ixtisoslashtirilgan OTMlarning talabalari, jurnalistlar qatnashishi mumkin.

Quyidagilarga Tanlovda ishtirok etishga ruxsat beriladi: arxitektura va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha litsenziyaga ega yuridik shaxslar, interyer va landshaft loyihalari bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar ham ishtirok etishi mumkin (bu faoliyat yo'nalishlari litsenziyalanmaganligi bois). Ixtisoslashgan OTMlarning talabalari OTMlarda o'qishini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart: talabalik guvohnomasi nusxalari va o'quv muassasasidan ma'lumotnoma (Tanlov Tashkilotchisining so'roviga binoan talabalar ro'yxatdagi hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etishi shart). Jurnalistlar ommaviy axborot vositalari bilan mehnat yoki boshqa shartnomaviy munosabatlarni tasdiqlashlari shart (tanlov tashkilotchisining iltimosiga binoan jurnalistlar tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etishlari shart).

Tanlovda Tashkilotchining ichki xodimlari va Tanlovning Ekspertlar Kengashi va hakamlar hay'ati a'zolari, ularning oila a'zolari, ular boshchiligidagi muassasalar va muassasalar bo'linmalarining xodimlari ishtirok etishi mumkin emas.

Tanlovda qatnashish bepul!

7. Tanlov toifalari va nominatsiyalari

1. Turar joy binolari

1.1. Alohida turar joy

1.2. Ko'p qavatli turar joy

2. Jamoat binolari

2.1. Tijoriy obyekt

2.2. Ma'muriy bino

3. Dizayn

3.1 Xona interyeri

3.2. Milliy uslubdagi interyer

4. Obodonlashtirish

4.1 Xususiy uy-joy landshafti

4.2 Jamoat joyi dizayni

1. "Turar-joy binolari" toifasi			
№	Nominatsiya nomi	Guruh Loyiha	Guruh Amalga oshirilgan loyiha
1.1	Alohida turar joy	A	B
1.2	Ko'p qavatli turar joy	A	B
2. "Jamoat binolari" toifasi			
2.1	Tijoriy obyekt	A	B
2.2	Ma'muriy bino	A	B
3. "Dizayn" toifasi			
3.1	Xona interyeri	A	B
3.2	Milliy uslubdagi interyer	A	B
4. "Obodonlashtirish" toifasi			
4.1	Xususiy uy-joy landshafti	A	B
4.2	Jamoat joyi dizayni	A	B

Izoh:

A guruhida kurator (OTM o'qituvchisi) rahbarligida talabalar, loyiha-smeta ishlarini bajarish huquqiga ega ijodiy jamoalar, byurolar, litsenziyalangan arxitektorlar, ishlashga ruxsat berilgan dizaynerlar ishtirok etishi mumkin;

B guruhida ijodiy jamoalar, byurolar, litsenziyalangan arxitektorlar, ishlashga ruxsat berilgan dizaynerlar ishtirok etishi mumkin;

OAVda faoliyat yurituvchi va arxitekturaga oid nashr mualliflari bo'lgan jurnalistlar tanlovning har qanday nominatsiyasida ishtirok etishi mumkin.

8. Sovrin jamg'armasi va uning taqsimoti

Tanlovning mukofot jamg'armasi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi va umumiy qiymati 215 000 000 (Ikki yuz o'n besh million) so'mni tashkil etadi.

“A” guruh g'oliblari uchun – “Loyiha”

Har bir nominatsiya g'olibi – 8 000 000 so'mlik mukofot.

Har bir nominatsiya bo'yicha g'olib talaba (talabalar jamoasi) – 6 000 000 so'mlik mukofot.

“B” guruh g'oliblari uchun – “Amalga oshirilgan loyiha”

Har bir nominatsiya g'olibi – 10 000 000 so'mlik mukofot.

Barcha nominatsiyalar bo'yicha g'olib jurnalist – 8 000 000 so'mlik mukofot*.

GRAN-PRI – 15 000 000 so'mlik mukofot.

Keyingi o'rinlarda – Sovrindorlar.

Har bir nominatsiyada 1 (bir) nafar G'olib aniqlanadi.

*** Jurnalistlardan barcha nominatsiyalar bo'yicha yagona Tanlov g'olibi aniqlanadi.**

Tanlovning yagona Gran-pri sovrindori tanlov hakamlar hay'ati qarori bilan belgilanadi.

Gran-pri sovrindori sifatida tanlovga berilgan har qanday ish, jumladan, nominatsiya sovrindori bo'lmagan ish tanlanishi mumkin.

Mukofot jamg'armasi hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblar o'rtasida yuqoridagi mukofot jamg'armasi taqsimotiga muvofiq taqsimlanishi kerak.

Mukofot summalarining miqdori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan daromad solig'ini hisobga olmagan holda ko'rsatiladi.

Tanlov Tashkilotchisi daromad solig'ini hisobga olgan holda yuqorida belgilangan barcha pul mukofotlarini Sovrindorlarga to'lab berishga majbur. Pul mukofotlari ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan Tanlov ishtirokchilarining shaxsiy hisobraqami, omonat yoki boshqa hisob-varaqlariga o'tkaziladi.

Sovrindorlar 2023-yil 31-dekabrgacha Tashkilotchi tomonidan to'langan mukofot summalaridan daromad solig'ini mustaqil to'lash majburiyatini oladi. Agar Sovrindor yakka tartibdagi tadbirkor yoki jismoniy shaxs bo'lsa, Tashkilotchi daromad solig'ini shaxsan to'laydi va mukofot summasi g'olibga yuqorida ko'rsatilgan to'liq miqdorda to'lab beradi. Barcha laureatlar (Short List) esdalik nishonlari va diplomlari bilan taqdirlanadi.

Barcha nomzodlar (Long List) Tanlov Nomzodlarining diplomlari bilan taqdirlanadi.

Biron bir sovrinli o'rin berilmagan yoki bitta sovrinli o'rin bir nechta ishtirokchilarga berilgan hollarda, mukofot jamg'armasi summasi tanlov sovrindorlari o'rtasida hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan nisbatda qayta taqsimlanadi.

Gran-Pri summasi qayta taqsimlanmaydi.

Talabalar va jurnalistika tanlovlaridagi mukofot miqdori qayta taqsimlanmaydi. Sovrindorlarning mukofotlari yaratilgan arxitektura asari uchun mualliflik mukofotidir.

9. Tanlovga materiallarni taqdim etish tartibi

To'ldirilgan Ishtirokchi anketasi Tanlovda ishtirok etish uchun asos hisoblanadi.

Tanlov loyihasining grafik qismini loyihalashga qo'yiladigan talablar:

Tanlov loyihalari tanlovga kombinatsiya shaklida shior bilan taqdim etiladi:

ular oltitta raqam va harfdan iborat bo'lishi lozim, bu yerda:

- birinchi raqam nominatsiya raqamini bildiradi (1-misolda - “Turar-joy binolari” nominatsiyasi
- ikki nuqta;
- ikkinchi raqam/ nuqta/ uchinchi raqam turkum raqamini bildiradi (1.2-misolda– bu “Ko'p qavatli turar joy”;
- ikki nuqta;

- XXXXXX – oltitta raqamdan iborat shaxsiy shior kombinatsiyasi;
- ikki nuqta;
- harfli belgi (A misolda bu – litsenziyalangan arxitektorlar rahbarligidagi talabalar, ijodiy jamoalar, loyiha-smeta ishlarini bajarish huquqiga ega byurolar, litsenziyalangan arxitektorlar, ishlashga ruxsat berilgan dizaynerlar tomonidan taqdim etilishi mumkin bo‘lgan loyiha.
Namuna: 1:1.2:XXXXXX:A

Jurnalistlar uchun shifr:

- birinchi raqam nominatsiya raqamini bildiradi (2-misolda - “Jamoat binolari” nominatsiyasi)
- ikki nuqta;
- XXXXXX – olti raqamdan iborat shaxsiy shior kombinatsiyasi;
- ikki nuqta;
- harfli belgi (“J” misolda– OAVda ishlovchi va maqola mualliflari hisoblangan jurnalistlar).
Namuna: 1:1.2:XXXXXX:J

Maqola/nashr o‘zbek yoki rus tillarida taqdim etiladi.

9.1 DIQQAT!

Tanlov loyihalaridagi barcha yozuvlar, imzolar o‘zbek yoki rus tillarida bajariladi. Har bir tanlov loyihasi uchun ishlar ELEKTRON SHAKLDA .pdf hujjat orqali qabul qilinadi. O‘lchamlari 1,4 metrga 1 metr va aniqlik darajasi maksimal 360 dpi bo‘lgan grafik materiallar berilgan jami 2 ta (ikkita) planshet taqdim etilishi kerak. Yuklanadigan fayllar hajmi 100 MB dan oshmasligi kerak. Tashkilotchi ko‘rgazmaga planshetlarni chop qiladi. Agar material belgilangan talablarga javob bermasa, u avtomatik ravishda tanlovdan chetlatiladi.

<http://memorcontest.uz/> saytida ro‘yxatdan o‘tgach, ekspozitsiya materiali elektron ko‘rinishda shaxsiy kabinetgizga yuklanadi.

Ekspozitsiya materialining tuzilishi va dizayni ishtirokchining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi.

9.2. Quyidagi toifalar bo‘yicha tanlov ishlarini shakllantirishga qo‘yiladigan talablar:

“Turar-joy binolari” toifasi

“Jamoat binolari” toifasi

“Dizayn” toifasi

“Obodonlashtirish” toifasi

Elektron versiyada-planshetda obyekt haqida to‘liq tasavvur hosil qiluvchi ma’lumotlar bo‘lishi kerak, ya’ni:

- vaziyat rejasi (ixtiyoriy masshtab, obyektning joylashuvi shaharda);
- bosh reja (masshtab 1:500 yoki 1:1000);
- mualliflik g‘oyasini maksimal ochib beruvchi qavat rejalari (masshtab 1:100; 1:200 yoki 1:50 - xususiy arxitektura obyektlari uchun);
- kesma (bir yoki ikkita, masshtab 1:100; 1:200; yoki 1:50 - xususiy arxitektura obyektlari uchun);
- fasadlar (mualliflar tanloviga muvofiq, masshtab 1: 100; 1:200 yoki 1:50 - xususiy arxitektura obyektlari uchun);
- 3D vizualizatsiya (“Loyihalar” nominatsiyasida);
- tabiatdan olingan rasmlar (“Qurilishlar” nominatsiyasida).


Matnli materiallar (tushuntirish xati, annotatsiya, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar) bo'sh joylar bilan birga maksimal 40 000 belgidan iborat planshetga joylashtirilishi lozim.

Vertikal devor panellariga ekspozitsiya materialini o'rnatish sxemasi (material tanlov tashkilotchisi tomonidan chop etiladi!)

Axborot maydoni planshetning yuqori chetidan 15 cm masofadagi chiziqda joylashgan.

Axborot maydoni va tanlov belgisi tashkilotchi tomonidan to'ldiriladi.

Tushuntirish xati barqaror arxitektura prinsiplariga muvofiq muallifning g'oyasi va loyiha haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Eslatma ixtiyoriy joylanadi.



10. Tanlovni o'tkazish jadvali

Tanlovni o'tkazish vaqti: 2023 yil 15-maydan 30-sentyabrgacha

Ishlarni topshirish: 2023 yil 15-maydan 06-avgustgacha*

Hay'at faoliyatining birinchi bosqichi: shortlist shakllantirish: 2023-yil 09-avgustdan 29-sentyabrgacha

Hay'at faoliyatining ikkinchi bosqichi: g'oliblarni tanlash: 2023-yil 1-sentyabrdan 15-sentyabrgacha

Tanlov yakunlarini e'lon qilish, g'oliblarni taqdirlash: 2023-yil 30-sentyabrda o'tkaziladi.

*Ko'rsatilgan tegishli muddatlardan keyin materiallar qabul qilinmaydi.

11. Tanlov reglamenti

11.1. Tanlov ikki turda o'tkaziladi. Birinchi turda Tashkilotchi tomonidan tayinlangan Tanlov koordinatori tanlovga taqdim etilgan barcha ishlarni baholaydi va ulardan Tanlov Nomzodlari ro'yxatini (Long List) shakllantiradi. Ikkinchi turda hakamlar Hay'ati Nomzodlar ro'yxatidagi ishlarni baholaydi va Tanlov Laureatlari ro'yxatini (Short List) tuzadi, keyin har bir nominatsiyada Sovrindorlarni ochiq ovoz berish usuli bilan aniqlaydi.

Hakamlar hay'ati nominatsiyada g'olibni aniqlamaslik huquqiga ega – agar loyiha belgilangan mezonlarga mos kelmasa, bitta sovrinli o'rinning ikki yoki undan ortiq egasini tanlash va Sovrindorlar ro'yxatiga boshqa o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Hakamlar hay'ati qarori yakuniy hisoblanadi.

Tanlov yakunlari bo'yicha Nomzodlarning tanlov ishlari ko'rgazmasi o'tkaziladi.

11.2. Tanlovning barcha bosqichlarida Tashkilotchi ishtirokchilarning to'liq anonimligini ta'minlashi kerak.

12. Qoidalar va javobgarlik

Tanlov tashkilotchisi tanlovning to'g'ri, aniq va shaffof o'tishi uchun javobgardir. Tanlov tashkilotchisi Tanlovni bekor qilish yoki uning qoidalariga qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va <http://memorcontest.uz/> saytiga tegishli e'lonni joylash orqali ishtirokchilarni ogohlantiradi.

Tanlov Tashkilotchisi barcha ishtirokchilar g'alaba qozonish uchun teng imkoniyatlarga ega ekaniga, shaxsiy aloqalardan foydalana olmasligiga yoki muayyan ishtirokchilarga imtiyozlar berilmasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Tanlov Tashkilotchisi sovrinlar uchun javobgardir va ularni tanlov shartlariga muvofiq g'oliblarga taqdim etishi shart. Tanlov Tashkilotchisi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlash va ulardan foydalanish uchun javobgardir.

Tanlov koordinatori shartnoma asosida tanlov tashkilotchilari bilan hamkorlik qiladi. Tanlov Koordinatori tanlovning maqsad va vazifalarini belgilashi, shuningdek, tanlovni o'tkazish uchun foydalaniladigan harakatlar rejasini ishlab chiqishi kerak. Tanlov Koordinatori tanlovning barcha ishtirokchilari tanlov tashkilotchilari tomonidan belgilangan qoidalar va talablarga rioya qilishlariga ishonch hosil qilishi kerak. Tanlov Koordinatori tanlov ishtirokchilarining fikr-mulohazasi va savollari hamda so'rovlariga javob berishi kerak.

Tanlov Hakamlar hay'ati Tanlov Tashkilotchisi va Koordinatori bilan ixtiyoriy asosda hamkorlik qiladi. Tanlov Hakamlar hay'ati tanlov g'oliblarini baholash va tanlash uchun javobgardir. Hakamlar hay'ati oldindan belgilangan qoidalar va baholash mezonlariga rioya qilgan holda adolatli, halol va oshkora harakat qilishi kerak. Hakamlar hay'ati hakamlar hay'ati qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tanlov ishtirokchilari bilan shaxsiy aloqalari yoki manfaatlariga ega bo'lishi mumkin emas. Hakamlar hay'ati maxfiylikni saqlashi va g'oliblar rasman e'lon qilinmaguncha tanlov ishtirokchilari va ularning ishlari haqida ma'lumot bermasligi kerak.

12. Tanlov haqida axborot berish

Tanlov haqidagi barcha rasmiy ma'lumotlar tanlov hakamlar hay'ati ish boshlagan sanadan kamida o'ttiz (30) kun oldin uning tashkilotchisi tomonidan rasmiy <http://memorcontest.uz/> veb-saytida e'lon qilinishi kerak. Qo'shimcha e'lonlar bosma va elektron ixtisoslashtirilgan OAV hamda ijtimoiy tarmoqlarga ham joylanishi mumkin.

E'londa quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Tanlov nomi, o‘tkazish muddatlari va tanlov turkumlari ro‘yxati;
- Tanlov Tashkilotchilari va Hamkorlarining nomlari (mavjud bo‘lsa);
- Tanlov Koordinatori;
- Tanlov Hakamlar hay‘ati tarkibi;
- mukofotlar soni va hajmi.

13. Tanlov ishlariga nisbatan mualliflik huquqlari

Tashkilotchi tanlovga taqdim etilgan ishlarni tanlovning rasmiy veb-saytida, bosma va elektron OAVda, ijtimoiy tarmoqlarda – asar muallifligi majburiy ko‘rsatilgan holda nashr etish, shuningdek, tanlov doirasida va uni tugatgach – Tanlov haqidagi ma’lumotlarni tarqatish maqsadida namoyish etish huquqiga ega.

Mukofotlar bilan taqdirlangan ishlar tashkilotchining ixtiyorida muddatsiz qoladi, ammo ularning mualliflari ularga nisbatan nomulkiy mualliflik huquqlarini saqlab qoladi.

14. Ishtirokchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoyalash va qayta ishlash

Shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etish va ularni keyinchalik Tashkilotchi tomonidan qayta ishlashning maqsadi Tanlov ishtirokchisini bu Nizomni bajarish uchun ro‘yxatdan o‘tkazishdir. Bu Nizomga muvofiq shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadlariga erishilgunga qadar va belgilangan maqsadga erishilgandan keyin kamida ikki yil davomida amal qiladi.

Bu Nizom bilan tanishib chiqib, shaxsiy ma’lumotlar subyekti yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, jismoniy shaxslarning (dizaynerlar, talabalar, jurnalistlar) quyidagi shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi – ishtirokchining FISH, tashkilot/ta’lim muassasasining to‘liq nomi, tashkilotning qisqartirilgan nomi, shaxsning (ariza beruvchining) tashkilot nomidan vakilining ismi va lavozimi, tashkilotning STIR raqami, elektron pochta manzili, telefon raqami, tanlov loyihasi haqidagi ma’lumotlar.

Subyektning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlash deganda Tashkilotchining shaxsiy ma’lumotlar bilan harakatlari tushuniladi, jumladan, ularni to‘plash, tizimlashtirish, saqlash, shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash maqsadiga erishgunga qadar, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), foydalanish, tarqatish (jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilinishini ta’minlovchi chora-tadbirlarga rioya qilgan holda uzatish), shaxsiy ma’lumotlarni shaxsiylashtirish, bloklash, yo‘q qilish.

Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilikni bekor qilish shaxsiy ma’lumotlar subyekti tomonidan tegishli buyruqni Tashkilotchiga oddiy yozma ravishda yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, subyekt shaxsiy ma’lumotlar subyekti bunday chaqirib olish bu Nizomda nazarda tutilgan oqibatlariga (chetlatish) olib kelishi mumkinligiga rozilik bildiradi.

Tashkilotchi mazkur Tanlov doirasida qayta ishlanadigan shaxsiy ma’lumotlar operatori hisoblanadi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlash talablariga rioya etilishini ta’minlaydi va shaxsiy ma’lumotlarga noqonuniy yoki tasodifiy kirish, yo‘q qilish, o‘zgartirish, bloklash, shaxsiy ma’lumotlarni nusxalash, tarqatish, shuningdek, boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishning barcha zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralari ko‘rish uchun mas’uldir. Tashkilotchi shaxsiy ma’lumotlar subyektlarining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashga, jumladan, uchinchi shaxslarga topshirishga roziligini olishni kafolatlaydi va bu tanlovni o‘tkazish uchun olingan shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashga uchinchi shaxslarni qo‘shimcha rozilik olmasdan jalb qilish huquqiga ega.

15. Tanlov natijalari

G'oliblarni tanlash hakamlar hay'ati Raisi tomonidan oldindan e'lon qilingan kun va vaqtda kamida uchta hakamlar hay'ati a'zosi va Tanlov Koordinatori ishtirokida (onlayn ishtirok etishga ruxsat beriladi) amalga oshiriladi. Tanlov Sovrindorlari aniqlangach, hakamlar hay'ati Sovrindorlar ro'yxatini taqdirlash marosimiga tayyorgarlik ko'rish uchun Tashkilotchiga topshiradi.

Mukofotlar va sovrinlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 60 (Oltmish) kundan kechiktirmay ishtirokchilarga to'lab berilishi kerak.

16. Tashkilotchilar va Hamkorlarning huquqlari va majburiyatlari

Tashkilotchi tanlovni bekor qilish yoki uning qoidalariga istalgan vaqtda o'zgartirish kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi va ishtirokchilarni tegishli e'lonni <http://memorcontest.uz/> saytiga joylash orqali o'zgartirishlar haqida majburiy ogohlantiradi.

Tashkilotchi Tanlovda ishtirok etganlarning ishtirok etishi bilan bog'liq har qanday zarar uchun Tanlov ishtirokchilari oldida javobgar bo'lmaydi.

17. Aloqa ma'lumotlari

Agar tanlov mavzusi bo'yicha savollar tug'ilsa, ular Tashkilotchiga tanlovning rasmiy <http://memorcontest.uz/> veb-sayti orqali yuborilishi kerak

Mazkur Nizomni
tayyorladi:

Yakupova Xilola
"KNAUF GIPS BU BUXORO" XK MCHJ
"Marketing va reklama" bo'limi boshlig'i

Kelishildi:
Abdujamilov Shuhrat
"KNAUF GIPS BUXORO" XK MCHJ
Toshkent filiali direktori

Sana: 01.05.2023